O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining noyob ilmiy obyekti – Muhandislik-seysmometrik kuzatuv stansiyasi

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida noyob obyekt – Muhandislik-seysmometrik kuzatuv stansiyasi (MSKS) joylashgan. U kechayu-kunduz ishlaydi va zilzilalar vaqtida seysmik kuchlarni binolarga hamda ularning asosiga ta’sirini qayd etish uchun mo‘ljallangan.

Matematik ta’minotli kompyuter texnologiyasi asosida zilzilalar vaqtida MSKS o‘n ikki o‘lchash kanallari bo‘yicha seysmik signallarini qayd qilish va qayta ishlov berish uchun modernizasiya qilindi.